

HURMAT VA XUSHMUOMALALIK



Kattalarni hurmat qilish kerakligini hammamiz bilamiz.
Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

Foydalanish uchun so'zlar: ular hurmatga loyiq, yaxshi ishlar qilgan, ko'p yillar odamlar uchun ishlagan, farzandlarini tarbiyalagan, nabiralarini katta qilgan, donishmand, ko'p narsani biladi, yaxshi maslahat bera oladi.



Atrofimizda turli kasb egalari bor. Shifokor bemorlarni davolaydi, quruvchi uy quradi, oshpaz taom pishiradi. Hayotimiz bir maromda borishi uchun barcha kasblar zarur. Ular bilim va qobiliyatlarini ishga solib, o'z ishlarini yaxshi bajaradilar. Shuning uchun biz ularni hurmat qilamiz. Barcha kasb egalari hurmatga loyiqdir.



Bu kasb egalarini nima uchun hurmat qilamiz?
Rasmlarga qarab, savolga javob bering.






Biz kishida qandaydir fazilatlarni sezsak, uni hurmat qilamiz. U muhim nimanidir bilishi yoki biror qiyin yumushni bajara olishi mumkin. Bizni uning rostgo'ylik, mehribonlik va mardlik kabi ajoyib xislatlari yoki yaxshi ishlari hayratga solishi mumkin. Aqli, ishonchli, hozirjavob, hamisha va'dasini bajaradigan kishilar hurmatimizni qozonadi.

Biz bahslashganda baqirmaydigan, o'z fikrini bosiqlik bilan ifodalaydigan, o'zining nohaqligini tan oladigan, faqat o'zi haqida emas, boshqalar haqida ham qayg'uradigan insonlarni hurmat qilamiz.



Hurmat odamlarning fazilatlarini tan olishdir.
Biz hurmatni his qilganimizda o'sha odamga boshqacha munosabatda bo'lamiz. Uning so'zlari, fikri, harakatlari biz uchun muhim, qadrli bo'ladi.



Hurmat qanday bo'ladi? Qaysi xatti-harakatlar hurmat belgisi hisoblanadi?

Foydalanish uchun so'zlar: bosh egish, ta'zim qilish, qo'lni ko'ksiga qo'yish, qo'lni siqib ko'rishish, turli imo-ishoralar qilish, yo'l bo'shatish, so'zini diqqat bilan tinglash, maslahat so'rash, jamoat transportida joy berish.




Ertaklar, kitob, multfilm va badiiy filmlardan o'zingizga yoqqan, siz hurmat qiladigan qahramonlarni eslang. Siz ularni nima uchun hurmat qilasiz?



Hurmat hissi faqat kattalarga nisbatan paydo bo'lmaydi. Bolalar ham atrofdagilar hurmatini qozonadigan ishlar qilishi yoki fazilatlarini namoyon etishlari mumkin.



Rasmlarga qarang. Qaysi ish hurmatga loyiq?
Qaysi ish hurmat qilishga noloyiq?





Akmal, darslaringni qildingmi?
Endi o'ynaymizmi?



Ha, dars qilib bo'ldim. Hozir shaxmatimni olib chiqaman.



Eee, shaxmat rosa zerikarli o'yin.
Boshqa narsa o'ynaylik.



Sen shaxmatni tushunmaysan!
Yuraver o'sha qo'g'irchoqlaringni o'ynab...



O'zing tushunmaysan!
Men sen bilan o'ynamayman!



1. Akmal bilan Madina bir-biriga yaxshi gaplar aytdimi?
2. Ikkovi aytgan qo'pol gaplarning oxiri nima bilan tugadi?
3. Ularning oxirgi gaplarini shunday o'zgartiringki, ikkovi kelishib olib, birga o'ynasin.



Kimdir bizga qo'pol gapirsa, buni hurmatsizlik deymiz.
Qo'pol gap hech kimga yoqmaydi. Bir og'iz yomon gap janjalga sabab bo'lishi mumkin.

Kimdir bizga hurmat bilan muomala qilsa, xursand bo'lamiz. O'zaro hurmat bo'lsa, har qanday ishni birgalikda qilish mumkin.



Xushmuomalalik insonga hurmatning ajralmas qismidir.



Bu yerda bir voqeaning ikki xil ko'rinishi keltirilgan. Uning boshlanishi bir xil, lekin oxiri har xil tugagan. Ularning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomonligini baholang.

Mahallamizga Diyor degan bola ko'chib keldi. U juda ko'p narsani bilar ekan. Men Diyor bilan o'rtoq bo'immoqchi bo'ldim. Lekin u beso'naqayroq edi. Bir kuni futbol o'yнayotsak, Diyor kelib, "Men ham o'ynasam bo'ladimi?" – deb so'radi.



1-vaziyat.

Bir bola: "Yo'q! Sen o'ynashni bilmaysan! Begonalarni qo'shmaymiz!" – dedi. Hamma kului, men ham o'rtoqlarimga qo'shilib kulib yubordim.

2-vaziyat.

Boshqalarning javobini kutib o'tirmay, Diyorga: "Bugun qo'shni mahalla bilan o'yнayotgan edik. Biz uchun g'alaba muhim. Bugun faqat kuchlilar o'yнaydi, deb qaror qildik. Keyingi safar, albatta, o'ynaysan", – dedim.



Ikkala vaziyatda ham Diyor futbolga qo'shila olmadi. Lekin u qaysi javobni eshitib, xafa bo'lgan?

Qaysi vaziyatda Diyorning bolalar bilan o'rtoq bo'lib ketishi osonroq bo'ladi? Ikkala vaziyatdagi bolalarning so'zlari bir-biridan qanday farq qiladi?



Hurmat muloqot eshigining kalitidir.



Odamlarning iltimosi bizga to'g'ri kelmasa, noiloj "xo'p" deyishga majbur emasmiz. Lekin "yo'q" degan javobni ham yaxshi gap bilan, hurmat bilan aysak, o'sha odam bizdan xafa bo'lib qolmaydi.

Bizni hurmat qilmaydiganlar bilan do'st bo'lismiz dargumon. O'zaro hurmat bo'lmasa, yaxshi munosabat o'rnatib bo'lmaydi.



Maqollarning davomini topping va mazmunini tushuntiring.

Tilingda bo'lsa boling,

sehri bor.

Mehri borning

**o'zganining ham
qadrini bilmas.**

O'z qadrini bilmagan,

kulib turar iqboling.